

ISTE'DODLI JAK TARDI VA UNING RANG-BARANG IJODI MAHSULI ADEL BLAN-SEK XONIM

Abdullayeva Nilufar Nasulloyevna

Buxoro Davlat Universiteti o‘qituvchisi

E-mail: n.n.abdullaeva2019@buxdu.uz

Sharopova Malika Nurmatovna

Buxoro Davlat Universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail: malikasharopova123@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fransuz komikslar rassomi va yozuvchisi Jak Tardining mashaqqatli umr yo‘li, sermahsul ijodi, shuningdek, uning dunyoga mashhur asari qahramoni Adel Blan-sek xonim haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: komik, komiksmeyker, jurnal, «Yashil marka», dekorativ san’at, nashriyot, asar, tasviriy san’at, «Casterman», Angulem, legion, asarlar uchun ishlanma suratlar, retro-detektiv.

THE TALENTED JACQUES TARDY AND HIS COLORFUL CREATION MRS ADELE BLAN-SECQUE

Abstract: This article discusses the hard life, prolific work of French artist and writer Jascues Tardy. It also tells about Madame Adele Blancsec who is the heroine of his famous work.

Keywords: comic, comic maker, magazine, “Green Label”, decorative arts, publishing, artwork, fine art, “Casterman”, “Angoulême”, legion, artwork, retro detective.

IJODKORNING HAYOT YO‘LI

Mashhur fransuz yozuvchisi, komiksmeykeri (komiks yaratuvchi) va rassomi Jak Tardi 1946-yil 30-avgustda Fransiyaning Valens shahrida dunyoga kelgan. Otasi harbiy xizmatchi bo‘lganligi sababli Jakning bolaligi urushdan keyingi davrlarda Germaniyada o‘tgan. Keyinchalik 14-18 yillardagi urush vahshiylklari uning ijodini ilhomlantiradigan asosiy mavzulardan biriga aylanishdan oldin uning bolalik orzularini ta’qib qiladi.

Shundan so‘ng Jak avval Liondagi Tasviriy san’at maktabida, so‘ngra Parijdag‘i dekorativ san’at maktabida o‘qiydi. Shu vaqt ichida, ya’ni 1958-1959-yillarda Jak o‘zining «Yashil Marka» nomli komiksini chizadi. 1969-yilga kelib rassom «Pilot» haftalik jurnaliga ilk bora o‘z ijodi bilan qadam qo‘ydi. 1972-yilga kelib uning «Ryuerg haqida mishmishlar» nomli ilk uzun hikoyasi chop etildi. 1976-yilda Jak «Kasterman»(komiklar va bolalar kitoblari nashriyoti) bilan hamkorlikda unga mashhurlik va muvaffaqiyat keltirgan bir necha qismli «Adel Blan-sekning g‘ayrioddiy sarguzashtlari» nomli asarini yaratishni boshladi. Va nihoyat, 1985-yilga kelib Jak qiziqarli komikslari tufayli ilk mukofotiga Angulem (Angulem xalqaro komikslar festivalida qilgan barcha ishlari uchun komiks muallifiga beriladigan komiks mukofoti) shahrining bosh mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Va nihoyat 2005-yilda Jak Tardiga faxriy legion ritsari unvoni berildi. Ammo Jak bu unvonga egalik qilishdan bosh tortdi. Iste’dodli ijodkor bu haqida shunday deydi: «Men na hozirgi hokimiyatdan va na boshqa siyosiy kuchdan hech narsa olishni xohlamayman». Jak obro‘-e’tibor, balandparvozlik va ortiqcha mashhurlikni yoqtirmaydigan oddiy bir inson bo‘lsa-da, uning iste’dodi, asarlari uning bugungi kunda dunyoga mashhur bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Jak Tardi Oredi Dyupon, Kristin Skot-Tomas, Fransua Berlean, Nikola Ulo, Jerar Jyugno, Anna Sinkler kabi mashhur ijodkorlar bilan zamondosh va ijodiy aloqada bo‘lgan. U o‘ttiz yillik ijodi bilan komikslar olamida o‘zining sezilarli darajadagi izini qoldirishga muvaffaq bo‘ldi. U 1982 yilda oylik «Le Trou d’obus» (“Portlashdan hosil bo‘lgan chuqur”) (1984) jurnallarida chop etilgan «Ondaklar urushi» nomli o‘z ijod mahsulini chop ettirdi. Undan tashqari Tardi bir necha badiiy asarlarning tasvirini chizish bilan ham shug‘ullangan. U Selinning «Tun oxirigacha sayohat», «Kreditdag‘i o‘lim» va «Kasse-Pipe» filmlarini tasvirlagan. Nestor Burma va Leo Maletning «Tolbiak ko‘prigidagi tuman» (1982) nomli detektiv romanini, shuningdek, Jeo-Charlz Veranning «O‘lim uchun o‘yinlar» (1992), Didie Daeninksning «Birinchi jahon urushi» (1997) asarlarini ranglar jilosida jonlantiradi.

Eski odati bo‘yicha Tardi yozuvchilar bilan ko‘proq suhbat qurishni yaxshi ko‘rardi. U o‘zining zamondoshlaridan biri bo‘lgan Jan Vautrinning «Xalq faryodi» asari uchun ham tasvirlar yaratadi va 1999-yilda Votrinning romani nashr etilganda, muqovani aynan Tardi yaratadi. Bu asar Tardining sharofati bilan 19-asr oxiridagi Parijni tasvirlarda jonlantirishga imkon beradi.

ADEL BLAN-SEK XONIM

Mahoratlari komiksmeyker Jak Tardining mashhurlik cho‘qqisiga erishishidagi eng katta omil sifatida xizmat qiluvchi ijod namunasi bu «Adel Blan-sek xonimning g‘ayrioddiy sarguzashtlari» nomli asaridir. XIXasr oxiri va XXasr boshlaridagi

Fransiyaning go‘zal shahri Parijning yorqin jozibasini o‘zida aks ettirgan bu asar retro-detektiv va fantastik roman hisoblanib, u sakkiz jilddan iborat va grafik romanlar turkumiga kiradi. Asar mahoratlari rassomning ijodi ostida 1976-yilda dunyo yuzini ko‘radi. Bu komik asarning yana bir ajoyib jihatni, unda chizmalar ketma-ketligi shunchalik batafsil-ki, umumiyligi syujet chizig‘ini matn hamrohligisiz ham tushunish mumkin. Asar bosh qahramoni yosh xonim Adel Blan-sek qat’iyatli, bardoshli, qiyinchilik va hayotida uchraydigan to‘silalar oldida bosh egmaydigan jasur qiz, shu bilan birga ta’sirchan, hazilkash va nazokatli obraz ostida gavdalantirilgan. U o‘zining o‘lim yoqasiga kelib qolgan singlisini hayotga qaytarish uchun hayotida uchragan har qanday muammoga tushkunlikka tushmagan holda yechim topadi. Bu yo‘lda u nafaqat bejon yotgan singlisiga hayot beradi, balki bir necha begunoh, nohaqlik qurbanlarini ham qutqarib qolishga muvaffaq bo‘ladi. Ulardan bir necha asrdan buyon Parij muzeyida saqlanib kelingan tuxumni yorib chiqqan pterodaktil dinozavri ham bo‘ladi.

KOMIKSLARDAN FILMGACHA

Asar tez orada mashhur rejissor Lyuk Besson va uning rafiqasi prodyuser Virjiniya Besson-Silaning e’tibori ostiga tushadi. Virjiniya o‘z intervyusida shunday deydi: «Menimcha, asar boshida komikslarni sevadigan va ularni noyob qiladigan elementlarni o‘lchash juda muhim edi. Keyin badiiy filmning hikoya tuzilishini ishlab chiqish va saqlanishi kerak bo‘lgan komiksdagi barcha sahnalarini aniqlash rejalashtirilgandi. Bu film uchun biz komiks qahramonlarini o‘zgacha yuzlari, ajoyib to‘plamlari, atmosferasi bilan saqlab qolishga harakat qildik va biz filmni Adelning turli albomlarini yaratdik...». Film yaratilayotgan vaqtida uning muallifi Jak ham boshdan oxir rejissor va prodyuserlar bilan birga edi. Ular muallifdan ssenariy, dekoratsiya va boshqa narsalar bo‘yicha maslahatlashgan holda bu filmni yaratishdi. Va nihoyat film 2010-yilda dunyo yuzini ko‘radi. Film shu yildan boshlab to hozirgi kunga qadar ko‘plab tomoshabinlar e’tiborini qozongan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Christine Ferniot et J.B., « Les écrivains et la guerre », Lire, mars 2014.
2. «Jacques Tardi refuse la Légion d’honneur », Le Monde, 2 janvier 2013.
3. Laurent Mélikian, « Le Cru Tardi ‘97 », BoDoï, no 3, décembre 1997, p. 41.
4. Tous droits réservés – BDGest 2014.
5. История Фэндома - Е.В. Харитонов – 2003.
6. Géraldine Molina, “Le Paris des Aventures extraordinaires d’Adèle Blanc-Sec de Jacques Tardi”, Géographie et cultures, 61 | 2007, 61-78.
7. The Extraordinary Adventures of Adèle Blanc-Sec» (PDF) (Press release). EuropaCorp.